XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI
QARORI

2024 - yil 7 - fevral VI-63-6-3-50-K/24 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3-fevraldagi “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22-son farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Byudjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning 2024 yil 29 yanvardagi 02-08-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) tuman mahalliy byudjetining 2024 yil boshida shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan Zafarobod tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan 1 nafar chet tillari bo‘yicha xorijiy mutaxassisga yashash va ishlash uchun yetarli sharoitlar yaratib berish hamda ijara haqlarini to‘lab berish uchun 18 000 000 (o‘n sakkiz million) so‘m mablag‘ni tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri E.Begbo‘taevga ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu karorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O'.Raxmanov**